

O'ZBEK SHE'RIYATIDA FOLKLORIZMLARNING O'RNI

Ashurova Parvina Nurbobo qizi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13923228>

Annotatsiya. Maqolada og'zaki va yozma adabiyot o'rta sidagi munosabatlar, XX asr boshlaridagi adabiy hayot, folklorizm mohiyati, she'riyatda folklorizmlarning tutgan o'rni, folklorizm turlari, she'rdagi o'rnlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so 'zlar: folklor, folklorizm, genetik aloqadorlik, oddiy folklorizm, murakkab folklorizm, analistik folklorizm, sintezlashgan folklorizm, stilizatsiyalashgan folklorizm, maqol, matal, aforizm, irsoli masal.

Xalqimiz o'zining boy madaniyati va ma'naviyati bilan urf-odatlari-yu, udumlari orqali yozma adabiyotni har tomomlama jilolantira olgan. Xalq og'zaki ijodi qadimdan yozma adabiyotga o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. Zero, "So'z san'atining boshi folklordadir" – deb bejiz aytmagan Gorkiy. Yozma adabiyot ham xalq og'zaki ijodidan suv ichgan holda undan madad va kuch oladi. Folklorizmlarning she'riyatda tutgan o'rni haqida gapiradigan bo'lsak, boshqa davrlarga qaraganda XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek she'riyati O'zbekistonni, o'zbekni tarannum etgan, istiqlolni orzulagan, erkni kuylagan, shu yo'lda bor kuchini sarflagan she'riyat bo'lib, mustabid tuzum tazyiqidan folklor yordamida himoyalandi. Fikrni ifodalashning bunday usuli badiiylikni ham oshirdi.

XX asr she'riyatining yana bir o'ziga xos jihat, bu davrda kelib aruz vaznidan chekinib barmoq vaznida samarali ijod qilindi. Xalq tiliga yaqinlashuv, xalq dardini tarannum etgan she'rlar vujudga kela boshladi. Milliy qadriyatlarimizga e'tibor kuchaydi. Xalq tiliga yaqinlashuv natijasida dono xalqimizga xos bo'lgan fikrini dallillash uchun maqol, matallardan, naqlidan foydalanish hollari she'riyatimizda ham uchray boshladi. Xalq og'zaki ijodi merosi bo'lgan ming yillik afsona rivoyatlar XX asr she'riyatida o'ziga xos estetik, didaktik vazifalarni bajardi.

XX asrda xalqimiz ko'p qora kunlarni boshidan kechirdi. Badiiy adabiyot ham o'z o'rni da nur va zulmat ichida ta'sirini yo'qotganicha yo'q. XX asrning birinchi yarmidagi she'riyatimiz manzaralari Furqat va Muqimiyning jozibali va hajviy g'azallarida, Hamza va Avloniyning goh millatparvar, goh mafkuraviy taziyiqlar ta'siridagi siyosiy-ijtimoiy she'rlarida, Cho'lpon va Fitrat timsolidagi jadid adabiyotining ham shakl, ham mazmun jihatidan she'riyatimizda o'ziga xos burilish yasagan asarlarida, Hamid Olimjon, Oybek, G'afur G'ulomning tuzum asoratida nochor qolgan, shunda ham davrga mos tarzda mehnat kishisini kuylagan manzumalarida, Shayxzoda va Mirtemir, Asqad Muxtor va Shukrullo, Mirmuhsin va Husniddin Sharipovning sevgi, do'stlik,

insonparvarlik tuyg'ulari ham yoritilgan, shuningdek, partiya va Leninni, jamiyatni ulug'lagan, paxta rejalar-yu ijtimoiy mehnatni bamisli hayotdan ustun qo'yib yashagan qahramonlar tasvirlangan rang-barang asarlarda namoyon bo'ladi.

Qator ajoyib asarlar yaratilishiga qaramay, XX asr she'riyatimiz mohiyat e'tibori bilan, asosan, ijtimoy-siyosiy va mafkuraviy ruhdagi she'rlar tashkil etadi. Ijtimoy tuzum talabi bilan, shoirlarga o'tkazilgan tazyiq orqali she'riyatimizda uchragan turli obrazlar, betakror she'riyatimizni tumanli pardaga o'rabi tashlagan edi. Bu davrga kelib adabiyotimiz siyosatdan holi musaffo she'riyatga muhtoj bo'ldi. Aynan shu muhtojlik milliy ma'naviyatimizga qaytishga, urfatlarimizga, udumlarimizga murojaat qilishni taqazo etdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Og'zaki adabiyot namunalarini ma'lum bir ijodkor o'z uslubiga solib, yozma adabiyotga o'zlashtirilsa folklorizm hodisasi vujudga keladi. Folklorizm dastlab jahon adabiyotshunosligida keng ko'lamda o'rganilib, qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Folklorizm istiloh sifatida ilk bor XIX asrda fransuz folklorshunosi Sebiyo tomonidan qo'llanilib, "folklor bilan qiziqish va shug'ullanish" degan ma'noda ifodalangan. Rus adabiyotshunosligida XX asrning 30 – yillariga kelib M.K.Azadovskiy badiiy adabiyotda va publitistikada folkloridan foydalanishni folklorizm¹ deb atadi. Keyinchalik bu atama 60 – yillarga kelib xalqaro tus oldi.

Bu istiloh o'zbek adabiyotida o'tgan asrning 80 – yillarida kirib keldi. Bahodir Sarimsoqov o'z tadqiqotida uning mohiyatini yoritdi va shundan kelib chiqib tasnifladi. Tadqiqotdan anglashiladiki, xalq og'zaki ijodi namunalarining yozma adabiyotga ko'chishi – folklorizmni tashkil qiladi. Folklor va yozma adabiyot o'rtasidagi munosabatda ikki jihatni farqlaydi: a) folklor va adabiyot o'rtasidagi genetik (bevosita) aloqadorlik; b) har ikkisining bilvosita – folklorizmlar orqali aloqasi. Adabiyot va folklor o'rtasidagi genetik aloqadorlikni o'rganish, folklorizmga qaraganda ancha mushkul negaki, folklorizm individual ijodkor tomonidan o'zlashtirilib, folkloriga xos poetik vositalarni ongli ravishda – izchil g'oyaviy badiiy maqsadlarda qo'llanishi orqali amalga oshiriladi. Genetik aloqadorlikda bu holat kuzatilmaydi. Unda yaratilgan asarlarni asosini tashkil qilgan badiiy obrazlar so'z san'atini aynan qaysi tipidan (ya'ni folkloridanmi yo adabiyotni o'zidanmi?) tajriba alamashilganligi xususida mulohaza yuritiladi. Og'zaki ijodning nisbatan qadimiyligi ko'proq folkloridan yozma adabiyotga o'tganligini ko'rsatadi. Biroq yozma adabiyot tomonidan qabul qilingan har qanday tajriba ko'p yillik adabiyot tomonidan qabul qilingan har qanday tajriba ko'p yillik adabiy ijodiy jarayonda shu darajada rivojlantirilib, shu qadar o'zlashib

¹ Литературный энциклопедический словарь. М. Советская энциклопедия, 1987. – С. 469.

ketdiki, hozir ana shunday “adabiyotlashgan” tajribalarni folklorizmga kiritib bo‘lmaydi bunga asos ham yo‘q.

M.K.Azadovskiy folklorizmni ilmiy folklorizm va badiiy folklorizm tarzida ikki guruhga ajratdi. Bu esa folklorizmni o‘rganish jarayonidagi ilk ilmiy tasnif edi.² Qo‘llanilishi o‘rniga ko‘ra folklorizmlarni turli aniqlovchilar bilan birga ifodalanadi va ilmiy tamoyilga aylanib ulgurgan. Jumladan, “etnografik folklorizm”, “oddiy folklorizm”, “murakkab folklorizm”, “analitik foklorizm”, “sintezlashgan folklorizm”, “stilizatsiyalashgan folklorizm” kabi atamalar bilan qo‘llanilishi orqali hodisaning naqadar serqirra va murakkab, keng qamrovli ekanligini ilg‘ash mumkin. Bahodir Sarimsoqov folklorizmlarni struktura hamda badiiy asar to‘qimasida bajargan funksiyasi jihatdan ikki tipga ajratadi:

- I. Oddiy folklorizmlar;
- II. Murakkab folklorizmlar;³

Yozma adabiyotda qo‘llanilishi jihatidan folklorizmlarning eng faoli oddiy folklorizmdir. Yuqorida ta‘kidlab o‘tganimizdek, oddiy folklorizmlarga maqol, matal, yumuq iboralar va og‘zaki nutqqa xos oborotlar kiradi. M.Hakimov “Yozuvchi va xalq tili” monografiyasida maqol va aforizmlarning o‘zbek yozuvchilari ijodida qo‘llanilishiga oid quyidagi fikrni bayon etadi: “Yozuvchi umumxalq tili asosida badiiy obraz va xarakterlar yaratadi. Obraz va xarakterlarning tipik va individual bo‘lishi ularning turli-tuman tasviriy vositalar, shu jumladan, jonli tilning qaymog‘i bo‘lgan xalq aforizmlari – maqol, matal, hikmatli so‘zlar, iboralar badiiy-tasviriy qurol bo‘lib xizmat qiladi”.⁴ Bu o‘rinda olimning “xalq aforizmlari” iborasi deya e’tirof etilishi biroz noo‘rin, negaki, aforizmlar, hikmatli so‘zlar ma’lum individual ijodkor ijodi mahsuli sifatida unga xalq iborasini qo’shish to‘g’ri bo‘lmaydi. Holbuki, adabiyotshunoslikka oid lug’atida aforizmlarga shunday ta’rif beriladi: “Aforizm (grekcha “aphorisios”) avtori ma’lum bo‘lgan, chuqur mazmunli, aniq va ixcham shaklli hikmatli so‘zlardir”.⁵ Demak, aforizm muallifining aniqligi bois, folkloriga tegishli emas, “xalq aforizmi” deyiz nojoiz. Aforizm maqol uslubida va shaklida yaratiladi, xolos. Maqollar haqida Tolstoy o‘zining quydagи fikrlarini keltirib o‘tadi: “Xalqning 100 yillar mobaynida hayotiy kuzatish natijasida yaratgan maqollari va aforizmlari kulgi qo‘zg‘atuvchi so‘z va qochiriqlari murakkab hodisalar mohiyatini va xalq dunyoqarashini ifodalay olish qudratiga egadir. Shu vajdan ham

² Азадовский М.К. Статьи о литературе и фольклоре. М.-Л. Гослитиздат. 1960. –С 128

³ Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. - №4. - Б. 40-41.

⁴ Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili. - В. 22.

⁵ Хотамов Н. Саримсоқов Б. адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1979.-Б.37.

jahon adabiyoti klassiklari xalq maqollari va xalq ijodining boy va go‘zal tiliga yuksak baho berib keldilar. Har bir maqolda men shu maqolni yaratgan xalqning siymosini ko‘raman”. Haqiqatdan ham maqollar o‘z zimmalariga katta ma‘noni ko‘tarib turuvchi xaql og‘zaki ijodining noyob turidir. Unda xalqning dardu alamlari, chuqur falsafalari mujassam. She‘riyatda ko‘chganda esa, she‘rning jozibasini, estetikasini va ruhiyatini ko‘taruvchi vositadir.

Natijalar

XX asr she'riyati o'ziga xosligi, badiiyati, folklor materiallaridan keng foydalanilganligi alohida e'tiborga sazovordir. O'zining xalqqa yaqinligi, xalqchilligi bilan ajralib turadigan shoir Muhammad Yusuf, o'z ijodida xalq maqol va matallaridan unumli foydalangan:

O'nta bo'lsa o'rni boshqa uning-chun:

O‘g‘lim otashimdan yaralgan uchqun,

Qizim parilardan chehrasi gulgun,

Yuzlari lolam deb yashaydi o‘zbek.⁶

O‘zbek xalqi bolajon millat bo‘lgani uchun xalq orasida “o‘nta bo‘lsa o‘rni boshqa” degan maqol bor. Bu maqolda farzand son jihatdan ko‘p bo‘lsa-da, har birining oiladagi o‘rni, qilig‘i, xarakteri, fazilati alohidaligi ta’kidlanadi.

Shoirlarimiz ijodini tahlil etar ekanmiz, kutilmagan tarzda poetik talabga muvofiq o‘zgartirilgan xalq maqollari, matal va iboralarini uchratamiz.

Oddiy folklorizmlarni Isomiddin Yormatov ikki turga ajratadi: 1. Asl oddiy folklorizmlar; 2. Qayta ishlangan folklorizmlar. Asl oddiy folklorizmlar deb individual ijodkor tomonidan ongiltarzda ma'lum g'oyaviy-badiiy maqsadda hech qanday o'zgarishsiz aynan qo'llanilgan folklorizmlarga aytildi. Nasriy asarlarda bu voqeaga nisbatan o'zgarishsiz shaklda beriladi. Bu holatni biz she'riyatda o'zgacha tarzda uchratishimiz mumkin. Masalan:

Qo‘yma, yorim, kuydirmagin, kuyma, yor,

Bir yaxshiga bir yomon har joyda bor,

Ikki yaxshi yashnagan joy qayda bor?

Ketar bo‘ldim yuzingni bir ko‘rolmay!⁷

Shoir “Ikkimiz ham yaxshi bo‘lganimiz uchun birga yashash nasib qilmadi” tarzidagi armonini ifodalash uchun:

Bir yaxshiga bir yomon har qayda bor,

Ikki yomon bir bo'lsa kun qayda bor? —

⁶ Yusuf M. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2002. - 189 b.

⁷ Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent: Sharq HMAK, 2004.- B. 53.

Satrlarida xalq maqolining birinchi qismini aynan, ikkinchi qismini esa o‘z maqsadiga moslab qo ‘llagan. Muhimi, maqol vazni va qofiyasi saqlangan.

Maqollarning qo ‘llanilishi she‘riyatda goh vazn talabi bilan, goh poetik ta‘sir o‘tkazish maqsadida turlicha o‘zgartirilishi mumkin:

Birodar, bunchalar gerdayding nahot,
“O‘zgani she‘r bilgan” naqlin bilmasang.⁸

Ko‘rinib, turganidek “O‘zingni er bilsang ham, o‘zgani sher bil” maqolini birinchi qismi keltirilmagan, ikkinchi qismi ifodalangan. She‘rda ifodalangan naql termini xalqimizda maqol bilan sinonim sifatida ishlatiladi. Lekin folklorning mustaqil janri sifatida bu ikki istiloh tubdan farq qiladi. Naqlning qissadan hissa sifatidagi xulosasigina maqol shaklida ifodalanadi.

Oddiy folklorizm she‘riyat badiiyatida o‘ziga xos o‘ringa ega. O‘z davrida hazrat Navoiy ham ko ‘p o‘rinlarda maqol, matal va boshqa folklor elementlaridan unumli foydalana olgan. Xususan, shoir “Favoyid ul-kibar” devonidagi “Ishq aynidin ko‘zimni qilmadi yoruq jahon” deb boshlanuvchi g’azalida “It hurar – karvon o‘tar” maqolini qo ‘llaydi:

Borubon ahbobu men g’aflat asiri bo‘lmag’im,
Uyladurkim, it uyub qoldiyu ko‘chdi karvon⁹.

Alisher Navoiy lirk qahramonga qahramonga itlarning hurishiga e’tibor qilib yo‘ldan qolsa, keksalikda og‘u fig’on chekishini uqtiradi. Bobokalonimiz o‘git bersa, A.Oripov o‘kinib yozadi:

Deydilar it hurar,
O‘tadi karvon,
Ranju balolardan
Yonmasin joning.
Lekin alam qilar,
Bir umr giryon
Itlar orasidan
O‘tsa karvoning¹⁰.

Hazrat Navoiy xalq maqolidagi mazmunni tasdiqlasa, A. Oripov hamma vaqt ham shunday bo‘lavermasligini, itlar hurgani bilan zarar yetkaza olmay, orqada qolishi, karvon itlarni qoldirib olg‘a yurishi holati doimiy emasligini aytmoqda. Demak, vaqt nuqtayi nazaridan ham maqol mazmunini qisman o‘zgargan, yoki turli ijodkorlar uni turlicha talqin qilishgan. Ya’niki xalq

⁸ Muhammad Yusuf. Saylanma. Toshkent: Sharq HMAK, 2004.- B. 251.

⁹ Alisher Navoiy. MAT. Oltinchi tom. Favoyid ul-kibar. – Toshkent: Fan, 1990.-B.334.

¹⁰ Oripov A. Yillar armoni. – Toshkent: G’afur G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashr, 1987. – B. 445.

xulosasiga ko‘ra, gohida karvon manzilga yetguncha itlar hurib, tahdid solib turishi mumkinligi ifodalanmoqda.

Yana bir XX asr she’riyati vakili Anvar Obidjon she’rlariga xos jihatlarida biri shuki, sarlavha she’r kompozitsiyasida ochqich vazifasini o’taydi. Bunda she’r sarlavhasi matn bilan birgalikda yaxlit badiiy tizimni tashkil etadi. Ba’zi she’rlarida xalq maqollari sarlavha vazifasini o’taydi. Shoir she’r jozibasini, ta’sir kuchini oshirish uchun folklorning maxsus turi janridan foydalanib, oddiy folklorizmni yuzaga keltiradi.

“Shudgorda quyruq yotganmish...”

Sichqon aytdi ilonga,

Ilon aytdi quyonga.

Quyon aytdi qoplonga,

Qoplon...tushdi qopqonga!¹¹.

Xalqda “Bir balosi bo‘lmasa, shudgorda quyruq na qilur” maqoli bor. Maqolda tekin tuyulgan narsa aslida inson uchun xavf-xatar ekani, jon uchun qo’yilgan tuzoq bo‘lishini ayтиб, tog’ri yo’ldan ozmaslik uqtirilgan. Shoir shu maqolni sarlavha sifatida berar ekan, syujetning tuguniga aylantirgan. Shudgordagi quyruqni bir-biriga taklif qilayotgan qahramonlar ismi ohangdorlikka, qofiyadoshlikka qarab keltirilgan, bola she’rxon uchun qulay bo‘lishiga erishilgan. Sichqon, ilon, quyon o‘z nafsiyi tiydi, ammo Qoplon ochko‘zligi sabab qopqonga tushdi. Shoir qoplanni yirtqich sifatida jazoga loyiq deb topadi, ayni damda, “qopqon” so‘ziga ohangdoshlik qilishi, tovush takrorini yuzaga keltirishi ham inobatga olingan. Xalq maqoli ham sarlavha, ham syujet tuguni sifatida kompozitsion vositaga aylangan.

Muhokama

She’riyatda oddiy folklorizmlardan foydalanish irsolli masal san’atini vujudga keltiradi. Bundan tashqari ruju, ba’zan sifatlash, mubolag’a, tazod, tashbeh kabi badiiy san’atlarni ham o‘z bag’riga oladi. Umuman maqollarning she’riyatda qo’llanilishi bir qator funksiyalarni bajardi.

1. Maqollarning boqiyligi ta’minlandi;
2. Maqollarning ko ‘p ma’nolari ochib berildi, noto ‘ri tahlillar tanqid qilindi;
3. She’rlarning jozibadorligi oshirildi, xalqqa ruhan yaqinligi kuchaytirildi.

XX asr she’riyatida folklorizmlar tabiatini tekshirar ekanmiz, o ‘z o ‘rnida oddiy folklorizmlar bilan bir qatorda murakkab folklorizmlarni ham oz miqdorda uchrattdik. Negaki murakkab folklorizmlarni she’rda bir o‘qishda topish qiyin. U she’r mazmuniga singdirilishi, yoki ijodkor tomonidan folklor materiali qayta ishlangan bo‘lishi, folklor elementlari epizodik vazifa

¹¹ Anvar Obidjon. Juda qiziq voqeа. – Toshkent: Yulduzcha, 1987. – B.86.

bajarib qolishi mumkin. Buni faqat tadqiqotchi sinchikovlik bilan topa oladi. Adabiyotshunos olim B.Sarimsoqov murakkab folklorizmlarni aynan shu xususiyatlarini inobatga olib, uni uch turga ajratgan: a) analitik folklorizmlar; b) sintezlashgan foklorizmlar; d) stilizatsiya xarakterdagi folklorizmlar.

Analitik folklorizm oddiy folklorizm kabi asl holida yoki biroz o ‘zgartirilgan holda syujetga singdirilmagan folklor materiali bo ‘lib, asar tarkibida alohida ajralib turadi. Oddiy folklorizmlarning manbasi maqol, matallar bo‘lsa, analitik folklorizmda rivoyat, afsona, qarg’ish, olqish, qo ‘shiq to ‘liq holida hamda doston va qo ‘shiqlardan parchalarning badiiy asar tarkibida keltirilishidan hosil bo ‘ladi. Analitik folklorizm o ‘zbek she’riyatidan ko ‘ra nasrda ko ‘p uchraydi. I.Yormatov analitik folklorizmlar ko ‘rinishlari haqida fikr yuritib, A.Muxtorning “Chinor”, Shuhratning “Oltin zanglamas”, O ‘tkir Hoshimovning “Qalbingga quloq sol”, “Shamol esaveradi”, Tog’ay Murodning “Yulduzlar mangu yonadi” roman va qissa qatorida Komil Yashinining “Ulug’ kanal ” dramasidan ham misol keltirib o ‘tadi. Bu fikri bilan analitik folklorizm nafaqat nasrda, balki dramaturgiyada ham uchrashini aytib o ‘tadi.¹² Analitik folklorizm asar tarkibida kelib, ma’lum bir personaj nutqida ham qo ‘llanib keladi va bo ‘layotgan voqeа hodisalarning reallashuviga yordam beradi. X.To‘xtaboyev yaratgan “Besh bolali yigitcha ” romanining “Sarson-sargardon” deb ataluvchi uchinchi qismidagi “Omonga berilgan katta mukofot” bobida ham shu tipdagi analitik folklorizm doirasiga kiruvchi bolalar folklori materiallari mahorat bilan qo ‘llanilgan:

“ – Hoy lo ‘licha, tag’in bitta o ‘qib ber, -- qichqirdi haligi Zulayhoning ko ‘ylagidan tortqilagan yangi do ‘ppili bola. Ukganim...o ‘sha tomonga bo ‘ynini cho ‘zib, she’r o ‘qiy ketdi.

-Chaqma chaqar,

Olov yoqar,

Tomga chiqib,

Bitini boqar.

- Yashavor.

-Yana o ‘qi, lo ‘li bola.

-Manavi bolaniyam bopla, ikkita non beramiz.

- Lola chaman gul,

Atir upa sur,

Oying kelguncha

Uyni poylab tur”.

¹² Yormatov I. Folklorizmlarning tipologik xususiyatlari // O ‘zbek tili va adabiyoti. 1982. 57-58 betlar.

Murakkab folklorizmlarning sintezlashgan va stilizatsiya xarakterdagi turlari mavjudki, ularni farqalash tadqiqotchidan anchagina sinchikovlikni talab qiladi. Sintezlashgan folklorizmlar asosida yaratilgan asarlarning poetik tabiat, g'oyasi, mavzu doirasi bevosita folklor ruhi bilan sug'orilgan bo 'ladi.¹³ Afsona, rivoyat, xalq ertagi va qissasi syujetini yozma adabiyot tomonidan o'zlashtirilib, yozuvchi yaratgan syujetga biriktirib, yeirib yuborilishidan, sintezlashgan folklorizm hosil bo 'ladi. To 'ra Sulaymonning "Ergash Jumanbulbul yurt kezadi", A.Oripovning "Hakim va ajal", Omon Matjonning "Haqqush qichqirig'i", Xurshid Davronning "Vatan haqida yetti rivoyat" asarlari sintezlashgan folklorizmlarning bir ko'rinishidir. Stilizatsiya so 'zi ijodkor tomonidan muayyan adabiy manba ta'sirida o 'sha uslubda yangi asar yaratilishi ma'nosida qo 'llaniladi. Yozma adabiyotda folklor namunalarini stilizatsiya qilishning g'oyaviy-badiiy qoidalarini ko'proq P.C.Vixodstev tadqiqotlarida uchratamiz. "Adabiyot tarixida,-- deb yozadi u, -- san'atkor o 'z asari tarkibida folklore motivi yoki syujetidangina foydalanib qolmay, ayni paytda, badiiy tasvirning boshqa prinsiplarini ham, shu jumladan, uslubni ham o 'zlashtirganligini ko 'rsatuvchi misollar oz emas. Bunda muallif u yoki bu ertak, yoki qo 'shiqning yozma adabiy variantini yozish maqsadini ko'zlagandek bo'ladi".¹⁴ H.Olimjonning "Oygul bilan Baxtiyor", "Semurg' ", Sulton Jo'raning "Zangori gilam " kabi asarlari stilizatsiya xarakterdagi folklorizmga misol bo 'la oladi.

Xulosa

Bu turdagи folklorizmlarni Adabiyotshunos olim I.Yormatov progressiv va regressiv turlarga ajratadi. Tadqiqotchi Laylo Sharipova esa folklor elementlarini aynan qay turi o 'zlashtirlishiga qarab to 'rt turga bo 'ladi: janr stilizatsiyasi, motiv stilizatsiyasi, obraz stilizatsiyasi va ritm stilizatsiyasi.

Bu kabi tasniflash bir qator chalkashliklarni keltirib chiqargan. Xususan, katta epik asarlar tarkibida uchraydigan kichik janrlarni: maqol, matal, olqish, qarg'ishlarni o'zlashtirish oddiy va analitik folklorizmlarni vujudga keltirish barobarida o 'z o'rnida janr stilizatsiyasini ham vujudga keltirib turibdi. Bu esa o'zbek adabiyotida folklorizm hodisasini hali to 'la to 'kis nazariy asosini topganini ko 'rsatmoqda.

REFERENCES

1. B.Nazarov. XX asr she'riyatida Erkin Vohidovning tutgan o 'rni. O'zbek tili va adabiyoti / 2-son. 54-60 bet

¹³ Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологияси га доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. - №4. - Б. 40-41.

¹⁴ I.Yormatov. Stilizatsiya xarakterdagi folklorizmlar// O'zbek tili va adabiyoti . 4-son.32-33 betlar.

2. Саримсоқов Б. Фольклоризмлар типологиясига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980.
– №4. – Б. 40-41
3. Hakimov M. Yozuvchi va xalq tili. – B. 22.
4. Yusuf M. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2002. – 189 b